



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 ISS:3 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS



№	MUNDARIJA	Page
1.	TOVARLAR AUDITI NATIJALARINI AUDITORLIK HISOBOTIDA AKS ETTIRISH TARTIBI <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Qurbonov Muhammadali Bahodirovich</i>	4
2.	O'ZBEKISTONDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shirinova Obida Toshpulatovna</i>	8
3.	ORGANIZATION OF AN AUDIT OF THE MOVEMENT OF FIXED ASSETS BASED ON INTERNATIONAL STANDARDS REQUIREMENTS <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Orzumurodova Farangiz Damirovna</i>	12
4.	QURILISH TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Qo'chqorov Muslimbek Bobojon o'g'li</i>	16
5.	SAVDO KORXONALARIDA TOVAR OPERATSIYALARI AUDITINING TASHKILY TA'MINOTI <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Tursunboyev Sarvar Shuxrat o'g'li</i>	19
6.	SAVDO KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich</i>	24
7.	TURIZM KORXONALARIDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH <i>Ibragimov Mansur Mardonovich</i>	27
8.	KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOBI VA NAZORATINING INNOVATSION MEXANIZMLARI <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Davronov Miraziz Baxtiyor o'g'li</i>	30
9.	XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i>	33
10.	MEHNAT HAQI HISOBI VA AUDITINING ZAMONAVIY METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Yusupov Shavkar Xushvaqt o'g'li</i>	37
11.	KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOBI VA AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Akmalov Ilg'or Nazirovich</i>	41
12.	XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALARDA XARAJATLAR HISOBI VA KALKULYATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Toshbekov Firdavs Abdurauf o'g'li</i>	44
13.	XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TOVAR-MODDIY ZAHIRALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i>	47
14.	ASOSIY VOSITALARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDA TASNIFLASH VA BAHOLASHNI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shakarov Shahzod Sobir o'g'li</i>	52
15.	XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING KREDIT VA QARZ MABLAG'LARIDAN FOYDALANISH HISOBINI VA TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Mahmudova Go'zal Samadjon qizi</i>	56

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC instituti “Milliy ta‘lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamiyev Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).



XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

Shirinov Uchqun Abdualilovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti

Email: ushirinov@mail.ru

ORCID: 0000-0003-2146-9484

Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

Email: bahodirovadinabonu4@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada xalqaro standartlar, xususan 16-son BHXS talablari asosida asosiy vositalar hisobini takomillashtirish masalalari, asosiy vositalarning funksional, iqtisodiy, texnologik, investitsion va ekologik mezonlar bo'yicha takomillashtirilgan tasnifi ishlab chiqilgan hamda ekologik aktivlarni hisobga olish uchun yangi ishchi schyotlar tizimi taklif etilgan. Mazkur yondashuv moliyaviy hisobotlarning shaffofligi, ishonchligi va analitiklik darajasini oshirish, aktivlardan foydalanish samaradorligini baholash hamda korxonalarining investitsion jozibadorligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Asosiy vositalar, 16-son BHXS, MHXS, buxgalteriya hisobi, amortizatsiya, adolatli qiymat, ekologik aktivlar, yashil investitsiyalar, ishchi schyotlar, moliyaviy hisobot.

Abstract: The article discusses the issues of improving fixed assets accounting based on international standards, in particular, the requirements of IFRS No. 16, develops an improved classification of fixed assets according to functional, economic, technological, investment and environmental criteria, and proposes a new system of working accounts for accounting for environmental assets. This approach serves to increase the transparency, reliability and analytical level of financial statements, assess the efficiency of asset use, and enhance the investment attractiveness of enterprises.

Keywords: Fixed assets, IFRS No. 16, IFRS, accounting, depreciation, fair value, environmental assets, green investments, working accounts, financial reporting.

Абстрактный: В статье рассматриваются вопросы совершенствования учета основных средств на основе международных стандартов, в частности, требований МСФО № 16, разрабатывается улучшенная классификация основных средств по функциональному, экономическому, технологическому, инвестиционному и экологическому критериям, а также предлагается новая система учета оборотного капитала для экологических активов. Такой подход способствует повышению прозрачности, достоверности и аналитического уровня финансовой отчетности, оценке эффективности использования активов и повышению инвестиционной привлекательности предприятий.

Ключевые слова: Основные средства, МСФО № 16, МСФО, бухгалтерский учет, амортизация, справедливая стоимость, экологические активы, «зеленые» инвестиции, оборотный капитал, финансовая отчетность.

Kirish (Введение/Introduction).

Bugungi kunda iqtisodiyotning raqamlashtirilishi, investitsiya jarayonlarining jadallashuvi hamda korxonalarining xalqaro kapital bozorlariga integratsiyalashuvi asosiy vositalar hisobi tizimiga yangi talablarni qo'yimoqda. Asosiy vositalar korxonalarining ishlab chiqarish salohiyati, moliyaviy barqarorligi va uzoq muddatli rivojlanish imkoniyatlarini belgilovchi eng muhim aktivlar tarkibiga kiradi. Shu sababli ularni tan olish, baholash, amortizatsiyalash va moliyaviy hisobotlarda aks ettirish jarayonlarini xalqaro talablarga mos ravishda tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, 16-son BHXS (IAS 16) "Asosiy vositalar" standarti asosiy vositalarni dastlabki va keyingi baholash, qayta baholash modeli hamda amortizatsiya hisoblashning zamonaviy usullarini belgilab berishi bilan milliy hisob amaliyotidan sezilarli darajada farqlanadi. Shu bois korxonalarda asosiy vositalar hisobi metodologiyasini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va ishonchligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Jahon amaliyotida asosiy vositalarga kiritilayotgan investitsiyalar iqtisodiy rivojlanishning asosiy indikatorlaridan biri sifatida qaraladi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda yalpi asosiy kapitalning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2024-yilda 37 foizni tashkil etgan bo'lib, bu iqtisodiyotda asosiy vositalarning ahamiyati yuqori ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, 2024-yilda O'zbekistonda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 493,7 trln so'mga yetgan bo'lib, 2020-yildagi 210,2 trln so'mga nisbatan 2,3 baravar oshgan. Mazkur ko'rsatkichlar korxonalar balansida asosiy vositalar ulushi tobora ortib borayotganligini hamda ularning hisobini xalqaro standartlar asosida yuritish zaruriyatini yanada kuchaytirayotganligini tasdiqlaydi. Ayniqsa,

asosiy vositalarning haqiqiy qiymatini aniqlash, qadrsizlanishini baholash va moliyaviy hisobotlarda haqqoniy aks ettirish investorlar hamda kreditorlar uchun muhim axborot manbai hisoblanadi.

O'zbekistonda ham buxgalteriya hisobi tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. 2020-yildan boshlab yirik aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari va boshqa jamoatchilik manfaatdor subyektlarida MHXSni joriy etish boshlangan bo'lsa, keyingi yillarda milliy standartlarni xalqaro standartlarga uyg'unlashtirish ishlari jadallashdi. Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan 2026–2027-yillarda 30 dan ortiq yangi Moliyaviy hisobotning milliy standartlarini ishlab chiqish rejalashtirilgan bo'lib, ular MHXS tamoyillari asosida shakllantirilmoqda. Mazkur islohotlar asosiy vositalar hisobi metodologiyasini takomillashtirish, aktivlarni adolatli qiymatda baholash, amortizatsiya siyosatini optimallashtirish hamda korxonalarining investitsion jozibadorligini oshirish uchun mustahkam asos yaratmoqda. Shu nuqtai nazardan, xalqaro standartlar asosida asosiy vositalar hisobini takomillashtirish masalasi nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb ilmiy tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Asosiy vositalar hisobi korxonalarining katta qismini tashkil qilishi sababli buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning muhim obyektlaridan biri hisoblanadi. Shu bois iqtisodchi olimlar tomonidan asosiy vositalarni tan olish, baholash, amortizatsiyalash va hisobotlarda aks ettirish masalalari keng tadqiq qilingan. Xususan, **Kieso**, **Weygandt** va **Warfieldning** fikricha, asosiy vositalarni hisobga olishda ularning iqtisodiy mazmunini to'liq aks ettirish moliyaviy hisobotlarning ishonchligini ta'minlaydi. Olimlar asosiy vositalarni dastlabki va keyingi

baholash tartiblarini takomillashtirish orqali moliyaviy hisobot sifatini oshirish mumkinligini ta'kidlaydilar [1]. Shuningdek, **Epstein va Jermakowicz** MHXS talablari asosida asosiy vositalarni qayta baholash modelidan foydalanish aktivlarning real bozor qiymatini moliyaviy hisobotlarda aks ettirish imkonini berishini asoslaganlar [2].

Asosiy vositalarning tarkibiy qismlarini alohida hisobga olish va amortizatsiyalash masalasi **Alfredson, Leo, Picker, Loftus va Clark** tomonidan tadqiq qilingan. Ularning fikricha, IAS 16 talablari asosida komponentlar bo'yicha amortizatsiya hisoblash aktivlardan foydalanish samaradorligini aniqroq baholash imkonini beradi [3]. Shu bilan birga, **Belkaoui** amortizatsiya siyosatini korxonalar iqtisodiy manfaatlarining iste'mol qilinish darajasi bilan bog'lash zarurligini ta'kidlab, noto'g'ri amortizatsiya siyosati moliyaviy natijalarning buzilishiga olib kelishini qayd etadi [4]. **Hendriksen va Van Breda** esa inflyatsiya sharoitida asosiy vositalarni faqat tarixiy qiymatda hisobga olish ularning haqiqiy iqtisodiy qiymatini pasaytirib ko'rsatishini asoslab, adolatli qiymat konsepsiyasining afzalliklarini yoritganlar [5].

Xalqaro standartlar asosida asosiy vositalar hisobini takomillashtirish masalalari **Nobes va Parker** tomonidan xalqaro buxgalteriya hisobi nuqtai nazaridan o'rganilgan. Ularning fikricha, asosiy vositalarni hisobga olishning yagona xalqaro tamoyillari moliyaviy hisobotlarning turli mamlakatlar kesimida taqqoslanuvchanligini ta'minlaydi [6]. **Needles, Powers va Crosson** esa asosiy vositalarning qadrsizlanishini o'z vaqtida aniqlash va hisobga olish investorlar uchun muhim axborot manbai ekanligini ta'kidlaydilar [7]. Zamonaviy raqamli texnologiyalar sharoitida **Schroeder, Clark va Cathey** asosiy vositalar hisobi jarayonlarini avtomatlashtirish, inventarizatsiya va nazorat tizimlarini raqamlashtirish orqali hisob ma'lumotlarining aniqligini oshirish mumkinligini asoslab berganlar [8].

Xalqaro standartlarning me'yoriy asoslarini tahlil qilgan holda, **IAS 16 "Asosiy vositalar"** standartida asosiy vositalarni tan olish, baholash, amortizatsiya va qayta baholash tartiblari batafsil yoritilgan bo'lib, mazkur standart asosiy vositalar hisobi metodologiyasining asosiy manbasi hisoblanadi [9]. Shuningdek, **Moliyaviy hisobotning konseptual asoslari** aktivlarni tan olish va baholashning fundamental tamoyillarini belgilab beradi [10]. **Barth, Landsman va Lang** MHXSni qo'llayotgan korxonalarda moliyaviy hisobot sifati yuqori ekanligini empirik jihatdan isbotlaganlar [12], **Ball** esa xalqaro standartlarning qo'llanilishi investitsion jozibadorlikni oshirishini ta'kidlagan [13]. Mazkur ilmiy qarashlar O'zbekistonda ham asosiy vositalar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish zarurligini tasdiqlaydi.

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, asosiy vositalar hisobini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlari aktivlarni adolatli qiymatda baholash, komponentlar bo'yicha amortizatsiya hisoblash, qayta baholash modelidan foydalanish, qadrsizlanishni o'z vaqtida aniqlash va hisob jarayonlarini raqamlashtirish bilan bog'liqdir. Olimlarning aksariyati asosiy vositalar hisobi xalqaro standartlar talablari asosida tashkil etilgan moliyaviy hisobotlarning shaffofligi, ishonchligi va taqqoslanuvchanligi ta'minlanishini ta'kidlaydilar. Shu sababli O'zbekistonda asosiy vositalar hisobini takomillashtirishda IAS 16 talablarini milliy amaliyotga chuqur integratsiya qilish, qayta baholash va qadrsizlanish hisobini kuchaytirish hamda raqamli texnologiyalarga asoslangan hisob tizimlarini joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Methods/Методы).

Mazkur tadqiqotda asosiy vositalar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish masalalarini o'rganishda ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot va xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS) bo'yicha mahalliy hamda xorijiy olimlarning ilmiy ishlari tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, qiyosiy tahlil, mantiqiy umumlashtirish hamda tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. Xususan, asosiy vositalar hisobini yuritishning milliy amaliyoti bilan MHXSning 16-sonli "Asosiy vositalar" standart talablari o'zaro taqqoslandi. Shuningdek, asosiy vositalarni tan olish, baholash, amortizatsiya hisoblash va qayta baholash bilan bog'liq nazariy hamda amaliy yondashuvlar tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida xalqaro standartlar talablarini milliy hisob amaliyotiga moslashtirish imkoniyatlarini o'rganilib, asosiy vositalar hisobi sifatini oshirish hamda moliyaviy hisobotlarning ishonchligini ta'minlash bo'yicha ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Tahlil va natijalarlar (Analysis and results/Анализ и результаты).

Asosiy fondlarga (asosiy kapitalga) kiritiladigan investitsiyalar mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Chunki aynan ushbu investitsiyalar hisobiga yangi ishlab chiqarish quvvatlari yaratiladi, mavjud korxonalar modernizatsiya qilinadi, zamonaviy texnika va texnologiyalar joriy etiladi hamda iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligi oshiriladi. Asosiy fondlar korxonalarining uzoq muddatli aktivlari sifatida mahsulot ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish va daromad olish jarayonining moddiy asosini tashkil etadi. Shu sababli asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining ortishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiy o'sishni jadallashtirishning muhim sharti hisoblanadi.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda iqtisodiy islohotlarning jadallashuvi, sanoatni modernizatsiya qilish, infratuzilma obyektlarini rivojlantirish hamda xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish natijasida asosiy fondlarga yo'naltirilayotgan investitsiyalar hajmi sezilarli darajada oshib bormoqda. Bu esa korxonalar balansida asosiy vositalar ulushining ko'payishiga, ularni samarali boshqarish va hisobga olishga bo'lgan talabning ortishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, investitsiyalar hajmining o'sishi asosiy vositalarni tan olish, baholash, amortizatsiyalash va moliyaviy hisobotlarda aks ettirish jarayonlarini xalqaro standartlar talablari asosida tashkil etishni taqozo etmoqda. Shuning uchun asosiy fondlarga investitsiyalar hajmining ortishi nafaqat iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichi, balki asosiy vositalar hisobini takomillashtirish va uni xalqaro standartlarga moslashtirish zaruratini yuzaga keltiruvchi muhim omil sifatida ham namoyon bo'lmoqda.

Quyidagi rasmda 2020–2025-yillarda O'zbekistonda asosiy fondlarga (asosiy kapitalga) kiritilgan investitsiyalar hajmi va ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi dinamikasi aks ettirilgan. Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, tahlil qilinayotgan davr mobaynida asosiy fondlarga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi izchil o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, 2020-yildagi 210,2 trln so'mdan 2024-yilda 493,7 trln so'mga yetgan, 2025-yilda esa ushbu ko'rsatkichning 705,0 trln so'mga yetishi prognoz qilinmoqda. Shu bilan birga, investitsiyalarning YAIMdagi ulushi ham 2020-yildagi 22,7 foizdan 2025-yilda 34 foizgacha oshishi kutilmoqda. Bu esa mamlakatda ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, mavjud asosiy vositalarni modernizatsiya qilish va yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonlari jadallashayotganligini ko'rsatadi.



1-rasm. O'zbekistonda asosiy fondlarga kiritilgan investitsiyalar dinamikasi (2020–2025-yillar).¹

Mazkur ko'rsatkichlarning o'sishi korxonalar balansida asosiy vositalar ulushining ortib borayotganligini va ularni hisobga olish tizimiga nisbatan talablarning kuchayib borayotganligini anglatadi. Xususan, yirik investitsiya loyihalari, sanoat korxonalarini texnik va texnologik yangilash, infratuzilma obyektlarini qurish hamda xorijiy investitsiyalar hajmining ortishi asosiy vositalarni baholash, amortizatsiya hisoblash va moliyaviy hisobotlarda aks ettirish jarayonlarini takomillashtirishni talab etmoqda. Shu sababli asosiy fondlarga investitsiyalar hajmining o'sishi 16-son BHXS "Asosiy vositalar" talablarini amaliyotga keng joriy etish, aktivlarni adolatli qiymatda baholash hamda asosiy vositalar hisobi metodologiyasini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Natijada moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va ishonchligi oshib, korxonalarining investitsion jozibadorligi hamda xalqaro kapital bozorlaridagi raqobatbardoshligi yuksaladi.

Biz tadqiqotimiz davomida asosiy vositalarning amaldagi milliy va xalqaro tasniflari, xususan, BHMS hamda IAS 16 Property, Plant and Equipment talablari chuqur tahlil qilinib, ularning afzallik va

¹ Muallif ishlanmasi

kamchiliklari ilmiy jihatdan baholandi. Mazkur tahlillar natijasida asosiy vositalarni hisobga olish, baholash, amortizatsiya hisoblash, boshqaruv qarorlarini qabul qilish va moliyaviy hisobotlarda axborotlarning shaffofligini oshirishga xizmat qiluvchi yangi takomillashtirilgan tasnif ishlab chiqildi.

Quyidagi rasmda xalqaro standartlar, xususan 16-son MHXS (IAS 16) "Asosiy vositalar" standarti talablari hamda zamonaviy ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida ishlab chiqilgan asosiy vositalarning takomillashtirilgan ko'p mezonli tasnifi keltirilgan. Mazkur tasnifga ko'ra asosiy vositalar funksional, iqtisodiy, texnologik, investitsion va ekologik mezonlar bo'yicha guruhlangan.



2-rasm. Xalqaro standartlar asosida asosiy vositalarning takomillashtirilgan ko'p mezonli tasnifi

Funksional tasnif korxonada faoliyatidagi vazifalariga qarab ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, ma'muriy-boshqaruv va ijtimoiy-madaniy vositalarni ajratishni nazarda tutadi. Iqtisodiy tasnif esa aktivlarning daromad yaratishdagi o'rni va qiymat shakllanishiga ta'siridan kelib chiqib, ularni aktiv qism, passiv qism, daromad yaratuvchi va qo'llab-quvvatlovchi vositalarga bo'ladi. Texnologik tasnifda an'anaviy, avtomatlashtirilgan, raqamlashtirilgan hamda intellektual asosiy vositalar alohida guruhlariga ajratilgan bo'lib, bu zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida aktivlarning texnologik rivojlanish darajasini baholash imkonini beradi.

Taklif etilgan tasnifning muhim jihati shundaki, unda asosiy vositalar investitsion va ekologik mezonlar bo'yicha ham tasniflangan. Xususan, strategik, innovatsion, modernizatsiya va infratuzilma aktivlarini alohida ajratish korxonalarda investitsiya siyosatini shakllantirish hamda kapital qo'yilmalar samaradorligini baholash imkoniyatini kengaytiradi. Shuningdek, "yashil" aktivlar, energiya tejamlar aktivlar va oddiy aktivlar guruhlarining kiritilishi barqaror rivojlanish hamda ekologik boshqaruv tamoyillarini buxgalteriya hisobi tizimiga integratsiya qilishga xizmat qiladi. Natijada mazkur tasnif asosiy vositalar hisobini yanada analitik tashkil etish, amortizatsiya siyosatini takomillashtirish, moliyaviy hisobotlarda axborotlarning foydalilik darajasini oshirish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish sifatini yaxshilash imkonini beradi. Shu sababli ushbu tasnif asosiy vositalar hisobi metodologiyasini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishga qaratilgan yangi ilmiy yondashuv sifatida baholanishi mumkin.

Asosiy vositalarni ekologik mezonlar bo'yicha tasniflash ularni buxgalteriya hisobida alohida guruhlar kesimida aks ettirish zaruratini yuzaga keltiradi. Amaldagi schyotlar rejasida ekologik aktivlar alohida ajratilmaganligi sababli korxonalarda ekologik investitsiyalar, energiya tejamlar texnologiyalar va "yashil" aktivlar bo'yicha ma'lumotlarni shakllantirish qiyinlashadi. Shu sababli asosiy vositalar tarkibida ekologik mezonlar asosida analitik hisobni tashkil etish maqsadida 0100 – "Asosiy vositalar" schyoti tarkibida quyidagi ishchi schyotlarni joriy etish taklif etiladi:

- ✓ 0181 – "Yashil asosiy vositalar";
- ✓ 0182 – "Energiya tejamlar asosiy vositalar";
- ✓ 0183 – "Ekologik monitoring vositalari";
- ✓ 0184 – "Qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosiy vositalari";
- ✓ 0185 – "Oddiy (an'anaviy) asosiy vositalar".

Mazkur schyotlar bo'yicha hisobni tashkil etishda birinchi bosqichda aktivning ekologik xususiyati aniqlanadi. Agar asosiy vosita korxonaning atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirishga xizmat qilsa, u "yashil aktiv" sifatida tasniflanadi. Ikkinchi bosqichda aktivning dastlabki qiymati shakllantiriladi va tegishli ishchi schyotda aks ettiriladi. Masalan, korxonaga quyosh panellarini sotib olgan taqdirda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi beriladi:

Dt 0184 "Qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosiy vositalari" Kt 0820 "Asosiy vositalarni xarid qilish"

Uchinchi bosqichda aktiv foydalanishga topshirilgandan so'ng uning amortizatsiyasi hisoblanadi. Bunda amortizatsiya ham ekologik aktivlar bo'yicha alohida hisobga olinishi maqsadga muvofiq. Shu sababli quyidagi kontraktiv schyotlarni joriy etish tavsiya etiladi:

- ✓ 0281 – Yashil asosiy vositalar amortizatsiyasi;
- ✓ 0282 – Energiya tejamlar asosiy vositalar amortizatsiyasi;
- ✓ 0283 – Ekologik monitoring vositalari amortizatsiyasi;
- ✓ 0284 – Qayta tiklanuvchi energiya manbalari amortizatsiyasi.

Amortizatsiya hisoblanganda:

Dt 2010, 2310, 2510, 9410

Kt 0281–0284

To'rtinchi bosqichda ekologik samaradorlik monitoringi amalga oshiriladi. Buning uchun har bir ekologik aktiv bo'yicha elektr energiyasi tejalishi, uglerod chiqindilarining kamayishi va iqtisodiy samara ko'rsatkichlari analitik registrlarda yuritiladi. Beshinchi bosqichda moliyaviy hisobotlarda ekologik aktivlar alohida satr yoki izohlar orqali ochib beriladi. Bu investorlar va kreditorlarga korxonaning ESG (Environmental, Social and Governance) hamda barqaror rivojlanish ko'rsatkichlarini baholash imkonini beradi.

Natijada ekologik mezonlar asosida ishlab chiqilgan mazkur ishchi schyotlar tizimi asosiy vositalarning ekologik tarkibini alohida nazorat qilish, "yashil" investitsiyalar hajmini aniqlash, ekologik aktivlar rentabelligini baholash hamda korxonalarda barqaror rivojlanish hisobotlarini shakllantirish uchun zarur bo'lgan axborot bazasini yaratadi. Bu esa 16-son BHXS, ESG va "yashil iqtisodiyot" tamoyillariga mos ravishda asosiy vositalar hisobini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Выводы и предложения).

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, zamonaviy iqtisodiyot sharoitida asosiy vositalar korxonalarining eng muhim uzoq muddatli aktivlari sifatida nafaqat ishlab chiqarish jarayonining moddiy bazasini, balki korxonaning investitsion salohiyati, raqobatbardoshligi va moliyaviy barqarorligini ham belgilab beradi. So'nggi yillarda O'zbekistonda asosiy kapitalga yo'naltirilayotgan investitsiyalar hajmining izchil ortib borishi, yirik korxonalar sonining ko'payishi va iqtisodiyotning texnologik modernizatsiyalashuvi asosiy vositalar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Mavjud amaliyotda asosiy vositalar asosan ularning fizik shakli va funksional vazifalaridan kelib chiqib hisobga olinayotgan bo'lsa, zamonaviy korporativ boshqaruv va xalqaro hisobot talablari aktivlarni iqtisodiy samaradorligi, texnologik darajasi, investitsion ahamiyati va ekologik xususiyatlari bo'yicha ham baholashni talab qilmoqda.

Tadqiqot davomida 16-son BHXS (IAS 16) "Asosiy vositalar" standarti xujjatlari hamda Scopus bazasida indekslangan ilmiy manbalarda tahlili asosida asosiy vositalarning takomillashtirilgan ko'p mezonli tasnifi ishlab chiqildi. Mazkur tasnifda asosiy vositalar funksional, iqtisodiy, texnologik, investitsion va ekologik mezonlar bo'yicha guruhlandi. Taklif etilgan yondashuv aktivlarning korxonada faoliyatidagi real iqtisodiy o'rini aniqlash, amortizatsiya siyosatini takomillashtirish, aktivlar rentabelligini baholash va investitsiya qarorlarini qabul qilishda axborotlarning foydalilik darajasini oshirish imkonini beradi. Ayniqsa, raqamlashtirilgan, intellektual, innovatsion va "yashil" aktivlarning alohida guruhlariga ajratilishi Industry 4.0 va barqaror rivojlanish tamoyillarining buxgalteriya hisobi tizimiga integratsiyalashuvini ta'minlaydi.

Shuningdek, tadqiqotda ekologik mezonlar bo'yicha tasniflangan asosiy vositalarni hisobga olish metodologiyasi ishlab chiqildi hamda amaldagi schyotlar rejasini takomillashtirish maqsadida 0181–0185-sonli ekologik aktivlar schyotlari va 0281–0284-sonli amortizatsiya schyotlarini joriy etish taklif etildi. Ushbu schyotlar tizimi yordamida korxonalarda "yashil" aktivlar, energiya tejamlar texnologiyalar, ekologik monitoring vositalari va qayta tiklanuvchi energiya manbalari bo'yicha investitsiyalar hajmini alohida nazorat qilish, ularning samaradorligini baholash va moliyaviy hisobotlarda aks ettirish imkoniyati yaratiladi. Natijada ESG hisobotlari, barqaror rivojlanish ko'rsatkichlari hamda ekologik boshqaruv tizimlari uchun zarur bo'lgan analitik axborot bazasi shakllanadi.

Umuman olganda, xalqaro standartlar asosida asosiy vositalar hisobini takomillashtirish korxonalarda moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va ishonchligini oshirish, aktivlardan foydalanish samaradorligini baholash, investitsion jozibadorlikni kuchaytirish hamda

2 Muallif ishlanmasi

xalqaro kapital bozorlariga integratsiyalashuv jarayonlarini jadallashtirishga xizmat qiladi. Ishlab chiqilgan takomillashtirilgan tasnif va yangi ishchi schyodlar tizimi asosiy vositalar hisobining analitik imkoniyatlarini kengaytirib, korxonalarda aktivlarni boshqarish samaradorligini oshirish hamda buxgalteriya hisobi tizimini xalqaro

standartlar talablariga yanada yaqinlashtirishga xizmat qiluvchi muhim ilmiy-amaliy yechim hisoblanadi. Mazkur yondashuvni amaliyotga joriy etish natijasida korxonalar aktivlarining tarkibi, harakati va samaradorligi bo'yicha yanada batafsil va ishonchli axborot shakllanib, boshqaruv qarorlarining sifati sezilarli darajada oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. Kieso D.E., Weygandt J.J., Warfield T.D. Intermediate Accounting. – 17th ed. – Hoboken: John Wiley & Sons, 2020. – 1632 p.
2. Epstein B.J., Jermakowicz E.K. Interpretation and Application of International Financial Reporting Standards. – Hoboken: John Wiley & Sons, 2010. – 1248 p.
3. Alfredson K., Leo K., Picker R., Loftus J., Clark K. Applying International Financial Reporting Standards. – 4th ed. – Milton: John Wiley & Sons Australia, 2011. – 784 p.
4. Belkaoui A.R. Accounting Theory. – 5th ed. – London: Cengage Learning, 2004. – 592 p.
5. Hendriksen E.S., Van Breda M.F. Accounting Theory. – 5th ed. – Boston: Irwin McGraw-Hill, 1992. – 905 p.
6. Nobes C., Parker R. Comparative International Accounting. – 13th ed. – Harlow: Pearson Education Limited, 2016. – 656 p.
7. Needles B.E., Powers M., Crosson S. Financial and Managerial Accounting. – 11th ed. – Boston: Cengage Learning, 2013. – 896 p.
8. Schroeder R.G., Clark M.W., Cathey J.M. Financial Accounting Theory and Analysis: Text and Cases. – 12th ed. – Hoboken: John Wiley & Sons, 2019. – 672 p.
9. International Accounting Standard (IAS) 16 “Property, Plant and Equipment”. – London: IFRS Foundation, 2025. – 35 p.
10. Conceptual Framework for Financial Reporting. – London: IFRS Foundation, 2018. – 117 p.
11. Nobes C. Towards a General Model of the Reasons for International Differences in Financial Reporting // Abacus. – 1998. – Vol. 34, No. 2. – P. 162–187.
12. Barth M.E., Landsman W.R., Lang M.H. International Accounting Standards and Accounting Quality // Journal of Accounting Research. – 2008. – Vol. 46, No. 3. – P. 467–498.
13. Ball R. International Financial Reporting Standards (IFRS): Pros and Cons for Investors // Accounting and Business Research. – 2006. – Vol. 36. – P. 5–27.